SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboevich	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	955
Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI	966
Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
Astanayev Kulmakhammad Sanayevich	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA BOSQICHLARI	977
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	981
Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI	986
Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li	
XOM ASHYO VA MATERIALLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	990
Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Rafikova Aziza Xurshid qizi	
AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (Navoiy viloyati misolida)	994
O'roqov Mamurali Odil o'g'li	
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1000
Ibragimov Suxrob Latifovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	1004
Ismailova Nilufar Sabitdjanovna	
СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА	1010
Юсупов А.А., Райимкулов С.Х.	
TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOY MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
Xasanov Jahongir Botir o'g'li	
PAXTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	



PAXTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH

Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti,
mustaqil tadqiqotchi

E-mail: hamidullaad@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich

i.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlari va uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda paxta-to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, klaster tizimining joriy etilishi hamda qayta ishlash darajasining oshishi natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy samaradorlik o'rganilgan.

Shuningdek, maqolada 2018–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilinib, qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy bosqichlari yoritilgan. Xalqaro tajribalar asosida chuqur qayta ishlash sanoat rivojlanishining muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: paxta sanoati, qo'shimcha qiymat, chuqur qayta ishlash, paxta-to'qimachilik klasterlari, iqtisodiy samaradorlik, eksport, qiymat zanjiri, sanoat rivojlanishi, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the process of creating added value through deep processing of raw cotton and its significance in the economy of Uzbekistan. The study examines the development trends of the cotton-textile industry, the implementation of cluster systems, and the economic efficiency resulting from increased levels of processing.

In addition, the article analyzes statistical data from 2018–2025 to evaluate production and export dynamics and highlights the main stages of value creation. Based on international experience, it is substantiated that deep processing is a key factor in industrial development.

The results of the study show that increasing the level of cotton raw material processing contributes to strengthening the competitiveness of the national economy.

Keywords: cotton industry, added value, deep processing, cotton-textile clusters, economic efficiency, exports, value chain, industrial development, Uzbekistan economy.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс создания добавленной стоимости посредством глубокой переработки хлопкового сырья и его значение для экономики Узбекистана. В исследовании рассматриваются тенденции развития хлопково-текстильной отрасли, внедрение кластерной системы, а также экономическая эффективность, возникающая в результате повышения уровня переработки.

Кроме того, в статье проводится анализ статистических данных за 2018–2025 годы для оценки динамики производства и экспорта, а также выделяются основные этапы формирования добавленной стоимости. На основе международного опыта обосновывается, что глубокая переработка является ключевым фактором промышленного развития.

Результаты исследования показывают, что повышение уровня переработки хлопкового сырья способствует укреплению конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: хлопковая промышленность, добавленная стоимость, глубокая переработка, хлопково-текстильные кластеры, экономическая эффективность, экспорт, цепочка создания стоимости, промышленное развитие, экономика Узбекистана.

KIRISH

Hozirgi iqtisodiy o'sish davrida va sanoat diversifikatsiyasi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda ularni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu sababli, agrar sektorda yetishtiriladigan mahsulotlarni chuqur qayta ishlash orqali eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi paxta yetishtirish bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biri sifatida uzoq yillar davomida asosan xom ashyo eksportiga yo'naltirilgan modeldan foydalanib kelgan. So'nggi yillarda esa mamlakatda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish, chuqur qayta ishlash ulushini oshirish va tayyor mahsulot eksportini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453-son qarorida paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirish, chuqur qayta ishlash darajasini oshirish va eksport hajmini ko'paytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu ilmiy maqolaning yangiligi shundan iboratki, unda paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratishning iqtisodiy mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida klaster tizimi asosida samaradorlikni oshirishning yangi yondashuvlari ishlab chiqiladi. Shu sababli, maqolada paxta-to'qimachilik zanjirining har bir bosqichida yaratilayotgan qo'shimcha qiymat miqdorini baholash hamda uni oshirishning amaliy yo'llari taklif etiladi.

Ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad — paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratishning iqtisodiy ahamiyatini ochib berish, mavjud masalalarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta xom ashyosini qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, *World Bank* tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda xom ashyoni chuqur qayta ishlash sanoatni rivojlantirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tashkilot hisobotlarida qayd etilishicha, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, *UNIDO* tadqiqotlarida sanoatni modernizatsiya qilish va qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuv paxta-to'qimachilik sanoatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu masala atroflicha o'rganilgan. Jumladan, mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish, xom ashyoni qayta ishlash darajasini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Ularning fikricha, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlik oshadi, balki hududiy bandlik darajasi ham sezilarli yaxshilanadi.

Ammo mavjud tadqiqotlarda paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayonida yaratilayotgan qo'shimcha qiymatni aniq baholash mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, klaster tizimi sharoitida qiymat zanjirining har bir bosqichida hosil bo'ladigan iqtisodiy samarani kompleks tahlil qilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ushbu ilmiy maqolada paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarini tizimli ravishda o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarini tahlil qilishda umumilmiy va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish metodlari qo'llanildi.

Tizimli yondashuv asosida paxta-to'qimachilik zanjiri "xom ashyo – dastlabki qayta ishlash – chuqur qayta ishlash – tayyor mahsulot – eksport" bosqichlarida o'rganildi. Har bir bosqichda yaratiladigan qo'shimcha



qiymatning shakllanish mexanizmi alohida tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston paxta sanoati ko'rsatkichlari *World Bank* va *UNIDO* tomonidan taqdim etilgan xalqaro ma'lumotlar bilan solishtirildi. Bu esa milliy sanoatning global qiymat zanjirlaridagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Statistik tahlil jarayonida 2018–2025-yillar oralig'idagi paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasi, ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlari o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida trend tahlili amalga oshirildi va rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, paxta-to'qimachilik sanoatida qo'shimcha qiymat yaratish jarayoni birinchi marta integratsiyalashgan qiymat zanjiri modeli asosida tahlil qilindi. Ushbu modelda har bir ishlab chiqarish bosqichida yaratiladigan iqtisodiy qiymat alohida ko'rsatkich sifatida baholandi va ularning umumiy sanoat samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, ushbu ilmiy maqolada klaster tizimi sharoitida qo'shimcha qiymatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar (texnologik modernizatsiya, eksport tarkibi, qayta ishlash darajasi) o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv an'anaviy statistik tahlildan farqli ravishda kompleks iqtisodiy baholash imkonini beradi.

Shu boisdan, taklif etilgan metodologiya paxta sanoatida nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki iqtisodiy samaradorlik va qo'shimcha qiymatni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy model sifatida xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganilgan tahlillar paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash jarayoni O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. 2018–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan dinamik qatorlar sanoatda izchil o'sish tendensiyasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasi 2018-yilda 60 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 92 foizga, 2025-yil prognoziga ko'ra esa 96 foizga yetishi kutilmoqda. Bu holat mamlakatda xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish jarayoni jadallashganini ko'rsatadi.

Shu sababli, qayta ishlash darajasining oshishi bilan eksport tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2018-yildagi 1,1 mlrd AQSh dollaridan 2023-yilda 3,8 mlrd AQSh dollarigacha oshgan bo'lib, bu 3 barobardan ortiq o'sishni anglatadi. 2025-yilga borib esa ushbu ko'rsatkich 4,8 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (1-jadval).


1-jadval

O'zbekistonda paxta xomashyosini qayta ishlash darajasi (2018–2025-yy.)¹

№	Yil	Paxta tolasi ishlab chiqarish (mln tonna)	Qayta ishlash darajasi (%)	Tayyor mahsulot eksporti (mlrd \$)
1.	2018	3.2	60	1.1
2.	2019	3.1	65	1.4
3.	2020	3.0	73	1.8
4.	2021	3.2	82	2.4
5.	2022	3.3	88	3.2
6.	2023	3.4	92	3.8
7.	2024	3.5	94	4.2
8.	2025	3.6	96	4.8

Paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash darajasi tarmoq samaradorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichning izchil oshib borayotgani amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, klaster tizimining rivojlanishi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, xomashyoni qayta ishlash darajasining ortishi eksport salohiyatini kengaytirish, ichki sanoat zanjirlarini mustahkamlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon dinamikasi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

1 Muallif ishlanmasi



1-rasm. Paxta xomashyosini qayta ishlash darajasi²

Grafikdan ko'rinadiki, qayta ishlash darajasi 2025-yilga borib deyarli maksimal darajaga (96%) yetishi kutilmoqda. Bu esa paxta sanoatining izchil sanoatlashtirilayotganidan dalolat beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda paxta tolasi ishlab chiqarish hajmi yillik o'rtacha 3–3,5 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, so'nggi yillarda uning qayta ishlash darajasi sezilarli oshib, 2023-yilga kelib 90 foizdan yuqori ko'rsatkichga yetgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida). Bu esa xom ashyoni eksport qilishdan ko'ra, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, *World Bank* va *UNIDO* tadqiqotlarida qayd etilishicha, rivojlanayotgan davlatlarda sanoatni chuqurlashtirish va qayta ishlash zanjirlarini kengaytirish yalpi ichki mahsulot o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu natijalar paxta-to'qimachilik sanoatida qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy manbai — chuqur qayta ishlash ekanligini tasdiqlaydi. Xom paxta eksporti o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiyotga bir necha barobar ko'proq daromad keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1 tonna paxta xom ashyosini qayta ishlash bosqichlariga qarab qiymat keskin oshadi:

- xom paxta — boshlang'ich qiymat;
- paxta tolasi — o'rtacha qiymat;
- ip va mato — yuqori qiymat;
- tayyor kiyim-kechak — eng yuqori qo'shimcha qiymat.

Bu jarayon iqtisodiy adabiyotlarda "value added chain" (qo'shimcha qiymat zanjiri) deb yuritiladi. Ushbu zanjirda har bir bosqichda qiymat oshib borishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Ushbu ilmiy maqola shuni ko'rsatadiki, paxta-to'qimachilik klasterlarining joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan. Klaster tizimi orqali xom ashyoni yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlar yagona tizimga birlashtirildi. Natijada logistika xarajatlari maqbullashdi, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi va eksport hajmi kengaydi.

World Bank va *UNIDO* ma'lumotlariga ko'ra, chuqur qayta ishlash ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda (masalan, Turkiya, Xitoy) paxta sanoatidan olinadigan daromad xom ashyo eksportiga asoslangan iqtisodlarga nisbatan 2–4 barobar yuqori hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston uchun ham chuqur qayta ishlash strategiyasining samarali tanlanganini tasdiqlaydi.

Ushbu maqola asosiy xulosani quyidagicha ifodalaydi:

- paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasi barqaror o'sib bormoqda;
- eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli oshgan;
- qo'shimcha qiymat yaratish klaster tizimi orqali jadallashgan;
- sanoatning global raqobatbardoshligi mustahkamlanmoqda.

Ushbu maqolada o'tkazilgan tahlillar paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash iqtisodiy o'sishning muhim



drayveri ekanligini va qo'shimcha qiymat yaratish orqali milliy iqtisodiyot samaradorligini sezilarli oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratishning muhim manbalaridan biri ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2018–2025-yillar davomida paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasining izchil oshib borishi tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, eksport tushumlarining ortishiga hamda sanoatning umumiy samaradorligi yuksalishiga xizmat qilgan.

Aniqlanishicha, paxta-to'qimachilik klasterlarining joriy etilishi xom ashyo yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona tizimga birlashtirib, logistika xarajatlarini maqbullashtirish, ishlab chiqarish zanjirini qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratgan. Natijada milliy iqtisodiyotda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi oshib, eksport tarkibi yanada diversifikatsiyalashgan.

Shuningdek, ilmiy tahlillar paxta xom ashyosini faqat dastlabki qayta ishlash emas, balki uni ip-kalava, mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari va brendlangan tayyor mahsulotlar ko'rinishida bozorga chiqarish eng yuqori iqtisodiy samarani ta'minlashini ko'rsatdi. Bu esa paxta sanoatini chuqur qayta ishlash strategiyasining uzoq muddatli istiqbolda to'g'ri va samarali yo'nalish ekanligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasini yanada oshirish orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushini ko'paytirish.

2. Hududlarda zamonaviy to'qimachilik, bo'yash, pardozlash va tikuv-trikotaj korxonalarini kengaytirish.

3. Klaster tizimida ilmiy innovatsiyalar, raqamli boshqaruv va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro standartlar, sertifikatlash va brending tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash.

5. Tayyor mahsulot eksport geografiyasini kengaytirish hamda yuqori talabga ega tashqi bozorlarga chiqishni rag'batlantirish.

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini paxta-to'qimachilik qiymat zanjiriga faol jalb etish uchun moliyaviy va institutsional ko'mak mexanizmlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish sanoat o'sishini jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2019-yildagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4453-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4516526>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha yillik hisobotlar (2018–2025)*. Toshkent.
3. World Bank. (2023). *Cotton and Textile Value Chain Development Reports*. Washington, D.C.
4. UNIDO. (2022). *Industrial Development Report: Value Addition in Agribusiness*. Vienna.
5. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). (2021). *Agricultural Commodity Value Chains and Economic Development*. Rome.
6. Karimov I.A. *Iqtisodiy rivojlanish va sanoat siyosati bo'yicha asarlar to'plami*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
7. Islomov B., & Rahimov A. (2020). Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi va rivojlanish istiqbollari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*.
8. Abdullayev A. (2021). O'zbekistonda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish muammolari. *Iqtisodiy tadqiqotlar ilmiy jurnali*.
9. OECD. (2022). *Global Value Chains in Textile Industry*. Paris: OECD Publishing.
10. Porter, M.E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100